

**O'ZBEKISTON VA FARNSIYA JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQIDA
EHTIYOT CHORALARI: QIYOSIY HUQUQIY TADQIQOT VA ISTIQBOLLI
TAKLIFLAR**

Davlatova Shahzoda Rustam qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

2-bosqich talabasi

[Tel:+998 93 916 26 12](tel:+998939162612)

Annotatsiya Ushbu tadqiqot ishi O'zbekiston va Fransiya jinoyat-protsessual qonunchiligidagi ehtiyot choralari tizimini qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan.

Mazkur maqolada aybsizlik prezumpsiyasi, shaxsni qamoqqa olish asoslari, uy qamog'ini o'tash tartibi va garov institutining huquqiy tabiati o'zaro solishtiriladi.

Tadqiqot davomida Fransiyadagi garov pulini ikki qismga ajratish tajribasi o'rganilib, u asosida O'zbekiston Respublikasi JPK 249-moddasini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Taklif etilayotgan mexanizm sud hukmi ijrosini tezlashtirish, davlat resurslarini tejash va jabrlanuvchining moddiy huquqlarini real kafolatlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: garov, aybsizlik prezumpsiyasi, sud nazorati, elektron monitoring.

**PRECAUTIONARY MEASURES IN THE CRIMINAL PROCEDURAL LAW
OF UZBEKISTAN AND FRANCE: COMPARATIVE LEGAL RESEARCH AND
PROSPECTIVE PROPOSALS**

Abstract. This research is devoted to a comparative analysis of the system of precautionary measures in the criminal procedural legislation of Uzbekistan and France.

The article compares the presumption of innocence, the grounds for detention, the procedure for serving house arrest, and the legal nature of the bail institution.

During the research, the French practice of dividing bail money into two parts was studied, and on this basis proposals were developed to improve Article 249 of the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan. The proposed mechanism serves to accelerate the execution of court judgments, save state resources, and ensure real guarantees for the material rights of victims.

Keywords: bail, presumption of innocence, judicial control, electronic monitoring.

**МЕРЫ ПРЕСЕЧЕНИЯ В УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНОМ ПРАВЕ
УЗБЕКИСТАНА И ФРАНЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЕ
ИССЛЕДОВАНИЕ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ**

Аннотация. Данное исследование посвящено сравнительному анализу системы мер пресечения в уголовно-процессуальном законодательстве Узбекистана и Франции.

В статье сопоставляются презумпция невиновности, основания заключения под стражу, порядок применения домашнего ареста и правовая природа института залога.

В ходе исследования был изучен французский опыт разделения суммы залога на две части, на основе которого разработаны предложения по совершенствованию статьи 249 Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан. Предлагаемый механизм направлен на ускорение исполнения судебных решений, экономию государственных ресурсов и обеспечение реальных гарантий имущественных прав потерпевшего.

Ключевые слова: *залог, презумпция невиновности, судебный контроль, электронный мониторинг.*

Jinoyat protsessual huquqining asosiy maqsadi-jinoyatni fosh etish bilan birga, aybi isbotlanmagan shaxsni jinoiy ta'qibdan himoya qilishdir. Ammo sudgacha bo'lgan bosqichda sud nazoratining yetarli bo'lmisligi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda sudgacha bo'lgan bosqichda sud nazoratini kuchaytirish va ehtiyot choralarini liberallashtirish dolzarb maslalardan biri hisoblanadi .

Ushbu tahlilning maqsadi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi va Fransiya code de procedure penale(JPK) doirasida aybsizlik prezumpsiyasi ,ehtiyot chorolari (qamoq ,uy qamog'i ,garov) mavzulari o'rganib mazkur mavzu doirasida milliy qonunchiligini rivojlantirishga doir taklif ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur taqdiqod davomida qiyosiy-huquqiy tahlil usuli yordamida O'zbekiston va Fransiya Jinoyat-protsessual kodekslari solishtiriladi .Ikkala davlat qonunlaridagi o'xshashliklar va asosiy farqlar aniqlanib ,milliy qonunchilikni takomillashtiradigan takliflar ishlab chiqiladi .

1.Aybsizlik Prezumpsiyasi va inson sha'ni himoyasi

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksining 23-moddasiga ko'ra ,gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi.Ular o'zlarining aybsiz ekanini isbotlashi shart emas hamda istalgan vaqtda sukut saqlash huquqiga ega.

Fransiya Jinoyat-protsessual kodeksining kirish qismi 3-bandida aybsizlik prezumpsiyasi tushunchasi keltirilgan.Unga ko'ra,aybsizlik prezumpsiyasi bu-gumon qilinayotgan yoki jinoiy javobgarlikka tortilayotgan har bir shaxs aybdorligi isbotlanmaguncha aybsiz hisoblanadi.Ushbu aybsizlik prezumpsiyasining buzilishi qonunda nazarda tutilgan shartlarga muvofiq oldini olinadi ,bartaraf etiladi va jazolanadi .

Mazkur norma nafaqat Fransiyaning Jinoyat-protsessual kodeksi balki boshqa qonunchiligida ham mustahkamlangan.Masalan:1789-yili Fransiyada qabul qilingan Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasining 9-moddasida ham belgilangan.

Fransiya Jinoyat-protsessual kodeksining 803-moddasiga ko'ra,hech kimga nisbatan ,u jinoyatda gumon qilinayotgan bo'lsa ham ,kishan yoki cheklovchi vositalar qo'llanilishi mumkin emas.Faqatgina qochib ketishishga urinsa va xavfli deb baholansa qo'llanilishi

mumkin. Mazkur modda aybsizlik prezumpsiyasining real kafolati hisoblanadi, chunki hali aybi isbotlanmasdan turib, jamoatchilik ko'ziga aybdor degan tushuncha hosil bo'lishini oldini oladi.

Bundan tashqari, kishanlagan shaxsning suratini olish yoki bu suratni gazeta/internetda chiqarish qat'iy taqiqlanadi buni buzish jinoyat hisoblanadi.

Umumiy tahlil qiladigan bo'lsak har ikkala davlatda ham aybsizlik prezumpsiyasining tushunchasi bir xil va inson huquqlari qonun bilan himoya qilinadi.

Ammo farqli jihati shundaki, O'zbekistonda kishan taqish va gumon qilinuvchilarni ommaga e'lon qilish xavfsizlik chorasi deb qaralsa, Fransiyada bu inson sha'ni va qadr-qimmatini buzuvchi harakat sifatida baholanadi. Chunki ularda odamni aybi isbotlanmasdan turib jinoyatchi sifatida ko'rsatish ta'qiqlanadi.

2. Ehtiyot choralarini qo'llashdagi o'zga xosliklar

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 242-moddasiga ko'ra, Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish uch yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlarga doir hamda ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, buning uchun Jinoyat kodeksida besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha qo'llaniladi.⁴

Ehtiyot chorasini qo'llash tog'risidagi iltimosnoma prokuror tomonidan ko'rib chiqiladi agar prokuror unga rozi bo'lsa, qamoq tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi qaror va zarur materiallarni sudga yuboradi.

Fransiya Jinoyat-protsessual Kodeksining 137-1-moddasida sudgacha hibsga olish tartibi begilangan.

Ushbu moddaga ko'ra, sudgacha qamoqqa olish tergovchi yoki prokuror tomonidan emas, balki maxsus ozodlik va hibsga olish sudyasi tomonidan belgilanadi va uzaytiriladi.

Ozodliklar va hibsga olish bo'yicha sudya tortishuvli sud majlisidan keyin qaror chiqarganda, unga kotib yordam beradi.

Fransiya JPK 144-moddasiga ko'ra, sudgacha hibsga olish faqat sud jarayonida aniq va batafsil dalillarga asoslanib ushbu maqsadlarning bir yoki bir nechtasiga erishishning yagona yo'li ekanligi va uy qamog'i orqali erishish mumkin emasligi isbotlangan taqdirdagina berilishi yoki uzaytirilishi mumkin:

1. Dalillarni saqlab qolish (ayblanuvchi tomonidan dalillar yoki izlarni yo'q qilinishi yoki o'zgartirilishi xavfi bo'lsa);

2. Guvohlar yoki jabrlanuvchilarga hamda ularning oilalariga bosim o'tkazilishini oldini olish;

3. Tergov ostida bo'lgan shaxs va uning hamkorlari yoki sheriklari o'rtasidagi firibgarlik yo'li bilan til biriktirishning oldini olish;

4. Shaxsni himoya qilish (masalan: jabrlanuvchi tomonidan qasos olish xavfi)

5. Qochib ketish xavfini oldini olish;⁵

⁴ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksi

⁵ Fransiya Jinoyat-Protsessual Kodeksi

6. Jinoyatga chek qo'yish yoki uni takrorlanishini oldini olish uchun ;

7. Jamoat tartibini saqlash(jinoyatning jiddiyligiga qarab).

Umumiy o'xshash jihatlarga keladigan bo'lsak ,har ikki davlatda ham shaxsni hibsga olish uchun sudning qarori bo'lishi lozim.Tergovchi yoki prokuror o'zi mustaqil qamoqqa ola olmaydi .Shu bilan birga,bu jazo emas ,balki tergov tugaguncha qo'llaniladigan vaqtinchalik chora .

Farqli tomoni shundaki ,O'zbekistonda qamoqqa olish jinoyatlarning o'z xususiyati hamda uning ijtimoiy xavflilik darajasiga bog'liq.

Fransiyada esa qamoqqa olish jinoyatning xavflilik darajasiga emas,balki tergovga xalaqit berish xavfi bo'lgandagina qo'llaniladi .

Uy qamog'i:O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksining 242¹ - moddasiga ko'ra ,uy qamog'i gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun asoslar mavjud bo'lganida uning yoshini, sog'lig'i holatini, oilaviy ahvolini va boshqa holatlarni hisobga olgan holda qamoqqa olish maqsadga nomuvofiq deb topilgan taqdirda qo'llaniladi.

Uy qamog'ining mohiyati shundan iboratki ,bunda shaxs o'z uyidan yoki belgilangan yashash joyidan chiqishi taqiqlanadi ,sud tergovchi yoki prokurorning belgilangan qoidalariga bo'ysunadi hamda telefon ,internet va boshqa aloqa vositalaridan ham foydalanishi cheklanadi .Umumiy qilib aytganda ,harakat erkinligi cheklangan nazorat ostida yashash.

Uy qamog'i ko'pi bilan uch oy muddatni tashkil etadi .Besh oy va yetti oygacha uzaytirilishi mumkin.

Fransiya Jinoyat-protsessual Kodeksining 142-5-moddasiga ko'ra uy qamog'i quyidagi hollarda qo'llaniladi:

Agar ayblanuvchi shaxs kamida ikki yilgacha axloq tuzatish qamoq jazosiga yoki jiddiyroq jazoga tortilsa ,elektron monitoring yordamida uy qamog'i avtomatik ravishda yoki tegishli shaxsning iltimosiga binoan tergov sudyasi yoki ozodlik va hibsga olish sudyasi tomonidan belgilanishi mumkin.

Fransiyada uy qamog'i olti oydan oshmaydigan muddatga belgilanadi .Tergov davomida mazkur muddat uzaytirilishi ham mumkin.Ammo ,umumiy davomiyligi ikki yildan oshmasligi kerak.

Agar uy qamog'i tayinlanagan shaxs o'z majburiyatlarini bajarmasa ,hibsga olish orderi bilan ushlanishi va vaqtincha qamoqqa joylashtirilishi mumkin.

Umumiy tahlil qiladigan bo'lsak,ikkala davlatda ham uy qamog'i ehtiyot chorasi sifatida qo'llaniladi.Hamda uning mohiyati shaxsni jamiyatdan to'liq ajratmasdan turib uning harakatini cheklashdan iborat.Ammo ularning qo'llanilish tartibi bir-biridan farq qiladi .

Asosiy farq shundaki,Fransiyada uy qamog'i elektron monitoring asosida amalga oshiriladi .Uy qamog'i ko'pincha elektron bilaguzuk orqali nazorat qilinadi,ya'ni shaxsning harakati maxsus texnologiyalar bilan kuzatiladi .Agar belgilangan majburiyatlar buzilsa ,shaxs darhol qamoqqa olinadi va sud nazorati kuchaytiriladi .

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Ammo O'zbekistonda uy qamog'i vakolat berilgan davlat organlari nazorati asosida amalga oshiriladi. Ushbu tizim yaqin yillarda kirib keldi.

O'zbekistonda ham ushbu tizim 2025-yil 1-yanvarda boshlab bosqichma -bosqich amalga oshirilmoqda .

Vazirlar Mahkamasining 05.12.2024 "Uy qamog'i ehtiyot chorasi qo'llanilgan va ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarni elektron braslet orqali masofadan turib nazorat qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaror qabul qilindi.

Ushbu qarorga ko'ra,elektron braslet uy qamog'i ehtiyot chorasi qo'llanilgan yoki ozodlikdan cheklash jazosi tayinlangan shaxs oyog'iga taqiladi .Shaxs oyog'iga braslet taqish imkoniyati mavjud bo'lmasa qo'l qismiga taqishga ruxsat beriladi .⁶

Ammo ayrim toifadagi shaxslarga qo'llash mumkin emas (18yoshga to'lmaganlarga,homilador ayollarga,3yoshgacha bolasi bor ayollar va boshqalar).

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra ,elektron nazorat tizimi dastlab sinov tariqasida ayrim hududlarga joriy etilgan .2025-yildan boshlab esa kengroq tatbiq etish rejalashtirilgan.

Garov:O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksida garov ham ehtiyot chora sifatida kiritilgan.

JPK 249-moddasiga ko'ra,garov-bu ayblanuvchi yoki boshqa shaxslar tomonidan surishtiruvchi ,dastlabki tergov organi deposit hisobvarag'iga o'tkaziladigan pul mablag'i yoki qimmatbaho buyumlar hisoblanadi.Shuningdek,garov sifatida ko'chmas mulk ham qabul qilinishi mumkin.

Garov summasi BHM 20 baravaridan kam bo'lishi mumkin emas. Mazkur miqdor ayblovning og'irligini, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining va garovga qo'yuvchining shaxsini, garovga qo'yuvchining mulkiy ahvolini hamda uning gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi bilan munosabatlarini inobatga olgan holda belgilaydi.⁷

Fransiyada garov sud nazoratiga kiradi.Ya'ni bu-qamoqqa olish o'rniga qo'llaniladigan ehtiyot chorasi bo'lib,bunda shaxsning erkinligi cheklangan holda jamiyatda qolishga ruxsat beriladi .

Fransiya Jinoyat-protsessual Kodeksining 142-moddasiga ko'ra,garov puli ikkiga ajratiladi :

1.Ayblanuvchining tergov va sud majlislari o'z vaqtida kelishi ,sud hukmini ijrosini ta'minlash uchun .

2.Jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash ,aliment majburiyatlarini qoplash ,sud xarajatlari uchun va jarimalar .

Umumiy o'xshash tomonlari jihatidan tahlil qiladigan bo'lsk,ikkala davlatda ham garov ehtiyot chorasi sifatida ayblanuvchini tergovdan qochishini oldini olish va uning sud majlislarida ishtirokini ta'minlashdan iborat.

⁶ Uy qamog'i ehtiyot chorasi qo'llanilgan va ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarni elektron braslet orqali masofadan turib nazorat qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaror

⁷ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Asosiy farqli jihati shundaki, Fransiyada garov 2 qismga bo'linadi. 2-qismi jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplashdan iborat bu shuni ko'rsatadiki, Fransiyada garov jabrlanuvchining moddiy huquqlarini himoya qiladi .

Fransiya tizimidan kelib chiqib quyidagi mazmundagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etiladi

O'zbekiston Respublikasi JPK 249-moddasiga garov summasini ikki maqsadli qismga ajratish mexanizmini kiritishni taklif qilmoqchiman.

1. Protsessual kafolat qismi ya'ni ayblanuvchining tergovga va sudga kelishini ta'minlash ,shaxs qochib ketgan taqdirda pulni davlat foydasiga musodara qilish.

2. Jabrlanuvchiga yetkazilgan moddiy zararni qoplash ,sud xarajatlarini qoplash va jarimalar uchun .

Ushbu tizim orqali sud hukmining kuchga kirishi bilan pul to'g'ridan-to'g'ri jabrlanuvchining zararini qoplashga yo'naltiradi .Ayrim hollarda zararni undirish uzoq vaqt olishi yoki kutilgan natijani bermasligi mumkin. Bu tizim esa xodimlarning vaqtini va davlatning xarajatlarini tejaydi. Hamda jabrlanuvchining moddiy manfaatlarini kafolatlaydi.

Umumiy xulosa qiladigan bo'lsam, Fransiya va O'zbekiston ikki davlat ham roman-german huquqiy oilasiga mansub bo'lgani uchun Jinoyat protsessual qonunchiligi juda ham o'xshash. Mazkur tahlilda aybsizlik prezumpsiyasi ,ehtiyot choralarining ayrim turlari ,ularning o'xshash va farqli jihatlari o'rganildi . Tahlilda garovning 2-qismga bo'linishi ularning qo'llanilishi ,qamoq ehtiyot chorasining qo'llanilish asoslari hamda uy qamog'ini o'tash tartibidagi farqli jihatlar yuzaga keldi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-Protsessual Kodeksi 22.09.1994
<https://lex.uz/mact/-111460#-253709>

2. Fransiya. Jinoyat-Protsessual. Kodeksi
https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006071154/

3. <https://lex.uz/uz/docs/-7249299> Uy qamog'i ehtiyot chorasi qo'llanilgan va ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarni elektron braslet orqali masofadan turib nazorat qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaror.